## ANDIJON VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
*(hajmi va o'sish sur'ati)*

**Jami chakana savdo tovar aylanmasi - 4 178,6 mlrd. so'm**



**Yirik korxonalar**
- 462,3 mlrd. so'm
- 84,3 %



**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik**
- 3 716,3 mlrd. so'm
- 90,3 %



shundan: **Uyushmagan savdo**
- 381,7 mlrd. so'm
- 85,5 %

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 4 178,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 10,4 % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi 462,3 mlrd. so'mni (15,7 % ga kamaydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining savdo tovar aylanmasi 3 716,3 mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 90,3 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 381,7 mlrd. so'mni (2019-yilning shu davriga nisbatan 14,5 % ga kamaydi) tashkil etdi.

## HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI ULUSHI
*(foizda)*



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI-NING HAJMI VA O'ZGARISH SUR'ATLARI
*(mlrd. so'm, foiz)*

| | Jami | % | Yirik korxonalar | % | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik | % |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Andijon viloyati** | **4 178,6** | **89,6** | **462,3** | **84,3** | **3 716,3** | **90,3** |
| **Andijon shahar** | 1 454, 5 | 90,2 | 367,1 | 84,3 | 1 087,4 | 92,5 |
| **Xonobod shahar** | 41, 3 | 92,3 | 2,7 | 128,0 | 38,6 | 90,5 |
| ***tumanlar:*** | | | | | | |
| **Oltinko'l** | 144,6 | 86,4 | 6,0 | 82,6 | 138,6 | 86,5 |
| **Andijon** | 205,3 | 94,9 | 30,0 | 185,3 | 175,3 | 87,6 |
| **Baliqchi** | 206,9 | 86,5 | 9,2 | 142,5 | 197,7 | 85,0 |
| **Bo'ston** | 40,7 | 87,6 | 4,0 | 106,9 | 36,7 | 85,9 |
| **Buloqboshi** | 95,0 | 89,5 | 2,3 | 95,3 | 92,7 | 89,3 |
| **Jalaquduq** | 144,0 | 92,7 | 2,2 | 92,0 | 141,8 | 92,8 |
| **Izboskan** | 179,9 | 92,1 | 2,1 | 69,7 | 177,8 | 92,4 |
| **Ulug'nor** | 37,7 | 86,1 | 0,1 | 67,9 | 37,6 | 86,2 |
| **Qo'rg'ontepa** | 297,1 | 90,4 | 3,9 | 98,4 | 293,2 | 90,3 |
| **Asaka** | 425,7 | 84,6 | 16,0 | 38,6 | 409,7 | 88,7 |
| **Marhamat** | 143,3 | 89,3 | 3,0 | 106,6 | 140,3 | 89,0 |
| **Shahrixon** | 403,3 | 92,2 | 7,4 | 175,1 | 395,9 | 91,4 |
| **Paxtaobod** | 175,5 | 90,1 | 4,1 | 28,9 | 171,4 | 95,0 |
| **Xo'jaobod** | 183,8 | 86,0 | 2,2 | 103,0 | 181,6 | 85,8 |

2019-yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichi kuzatilib, shahar va tumanlar ichida nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari Andijon, Xonobod sh., Shahrixon, Izboskan va Andijon shaharlarida qayd etildi.

## HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI O'ZGARISH SUR'ATLARI
*(foizda)*



**CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI**
(umumiy ovqatlanish korxonalarisiz)
*(hajmi va o‘sish sur’atlari)*




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 2019-yilning mos davriga nisbatan 84,3 % ni va 462,3 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 10,3 % ulushiga to‘g‘ri keladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko‘ra, 3 669,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 9,5 % ga o‘sdi. Viloyat bo‘yicha ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,9 % ga teng keldi.

**CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI**
*(hajmi mlrd. so‘m)*

| | Yirik korxonalar | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik | Uyushmagan savdo |
|---|---|---|---|
| 2019-yil yanvar -aprel | 483,1 | 3 627,4 | 393,3 |
| 2020-yil yanvar-aprel | 462,3 | 3 716,3 | 381,7 |

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK-NING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI
*(foizda)*




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Ulug'nor (99,7 %), Izboskan (98,9 %), Xo'jaobod (98,8 %), Qo'rg'ontepa (98,7 %) va Jalaquduq (98,5 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 11,1 % ni tashkil etib, eng katta ulush Andijon shahrida (25,2 %), Andijon tumanlarida (14,6 %) va Bo'ston (9,9 %) kuzatilgan.

## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI
*(foizda)*



**ANDIJON VILOYATI BO‘YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI** *(ming so‘m)* **VA O‘SISH SUR’ATLARI** *(foizda)*

2020-yil yanvar-aprel oylarida o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 1 333,4 ming so‘m (2019-yilning mos davri bilan solishtirganda 87,8 %) kuzatildi.

| | **Hajm,** ming so‘m | **O‘zgarish sur’atlari,** % da |
|---|---|---|
| **Andijon viloyati** | **1 333,4** | **87,8** |
| **Andijon shahar** | 3 285,7 | 88,6 |
| **Xonobod shahar** | 968,9 | 90,6 |
| ***tumanlar:*** | | |
| **Oltinko‘l** | 816,6 | 84,5 |
| **Andijon** | 782,5 | 92,9 |
| **Baliqchi** | 1 036,3 | 84,8 |
| **Bo‘ston** | 567,2 | 85,9 |
| **Buloqboshi** | 668,2 | 87,8 |
| **Jalaquduq** | 778,2 | 91,2 |
| **Izboskan** | 759,2 | 90,2 |
| **Ulug‘nor** | 635,3 | 84,5 |
| **Qo‘rg‘ontepa** | 1 380,4 | 88,7 |
| **Asaka** | 1 304,1 | 82,9 |
| **Marhamat** | 831,4 | 87,7 |
| **Shahrixon** | 1 352,3 | 90,3 |
| **Paxtaobod** | 913,7 | 88,3 |
| **Xo‘jaobod** | 1 675,5 | 84,1 |

Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganida eng yuqorisi Andijon shahri (3 385,7 ming so‘m), Xo‘jaobod (1 675,5 ming so‘m), Qo‘rg‘ontepa (1 380,4) va Shahrixon (1 352,3 ming so‘m) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Buning sababi ushbu hududlarda yirik savdo va sanoat tashkilotlari joylashgan.

**ANDIJON VILOYATI HUDUDLARI KESIMIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI O‘SISH SUR’ATLARI**
*(foizda)*




2020-yilning yanvar-aprel oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,1 % ni tashkil etib, 46,7 mlrd. so‘mga yetdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 74,4 % ni tashkil etdi. Bunda jami savdo aylanmasining 88,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushiga to‘g‘ri kelmoqda.

**HUDUDLAR KESIMIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI HAJMI**
*(mlrd. so‘m)*




Umumiy ovqatlanish korxonalarida savdo aylanmasining nisbatan yuqori ko‘rsatkichi Andijon shahriga (viloyatning jami tovar aylanmasiga nisbatan 47,5 %) to‘g‘ri kelmoqda. Nisbatan yuqori hajm Shahrixon (10,3 %), Xo‘jaobod (6,3 %) va Asaka (6,2 %) tumanlarida kuzatildi.

## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Ulgurji savdo tovar aylanmasi

Yil boshidan viloyat bo‘yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi **928,5 mlrd.** so‘mni tashkil qildi va 2019-yilning mos davriga nisbatan **0,4** foizga kamaydi.

### Yirik korxonalar

Yirik korxonalar ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi **426,5 mlrd.** so‘mni tashkil qildi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 40,**1** foizga o‘sdi.

**Ulushi: 45,9 %**

### Kichik korxonalar

Savdo hajmi: **75,3 mlrd.** so‘m
O‘sish sur’ati: 89,**4 foiz**

**Ulush: 8,1 %**

### Mikrofirmalar

Savdo hajmi: **426,7 mlrd.** so‘m
O‘sish sur’ati: **90,9 foiz**

**Ulushi: 46,0 %**

## YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES SUBYEKT-LARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, % da

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, 502,0 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 20,1 % ga kam bo‘lgan. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 54,0 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko‘rsatkich boshqa tumanlar bilan taqqoslanganda Buloqboshi (100,0 %), Izboskan (99,9 %), Andijon (99,8 %) va Baliqchi (99,5 %) tumanlarida yuqori bo‘lgan.



**HUDUDDLAR KESIMIDA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI** *(mln. so'm)* **VA O'TGAN YILNING SHU DAVRIGA NISBATAN O'ZGARISH SUR'ATLARI** *(foizda)*

| | Jami | % | Yirik korxonalar | % | Kichik biznes subyektlari | % |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Andijon viloyati** | **928 487,1** | **99,6** | **426 520,9** | **140,1** | **501 966,2** | **79,9** |
| **Andijon sh.** | 501 508,3 | 103,5 | 319 940,5 | 118,6 | 181 567,8 | 84,6 |
| **Xonobod sh.** | 6 995,7 | 84,1 | 457,9 | 0 | 6 537,8 | 78,6 |
| ***tumanlar:*** | | | | | | |
| **Oltinko'l** | 17 683,4 | 77,5 | 39,5 | 60,2 | 17 643,9 | 77,6 |
| **Andijon** | 18 402,2 | 80,6 | 31,4 | 46,5 | 18 370,8 | 80,7 |
| **Baliqchi** | 19 259,3 | 76,5 | 103,7 | 96,1 | 19 155,6 | 76,4 |
| **Bo'ston** | 10 653,3 | 79,5 | 17,3 | 43,0 | 10 636,0 | 79,6 |
| **Buloqboshi** | 7 432,3 | 79,1 | 0,0 | 0 | 7 432,3 | 79,1 |
| **Jalaquduq** | 6 354,4 | 80,8 | 81,0 | 2,2 m | 6 273,4 | 80,2 |
| **Izboskan** | 38 598,0 | 76,5 | 54,5 | 41,7 | 38 543,5 | 76,6 |
| **Ulug'nor** | 4 901,8 | 82,9 | 26,7 | 88,3 | 4 875,1 | 82,9 |
| **Qo'rg'ontepa** | 58 390,8 | 143,5 | 47 416,8 | 176,6 | 10 974,0 | 79,3 |
| **Asaka** | 182 033,4 | 103,8 | 52 383,4 | 18,5 m | 129 650,0 | 75,1 |
| **Marhamat** | 2 864,5 | 79,6 | 33,7 | 96,6 | 2 830,8 | 79,4 |
| **Shahrixon** | 42 728,5 | 86,7 | 5 835,5 | 137,6 | 36 893,0 | 81,9 |
| **Paxtaobod** | 7 002,1 | 85,1 | 64,8 | 89,6 | 6 937,3 | 85,1 |
| **Xo'jaobod** | 3 679,1 | 76,3 | 34,2 | 54,2 | 3 644,9 | 76,6 |

2019-yilning mos davriga nisbatan ulgurji savdo tovar aylanmasi yuqori o'zgarish sur'atlariga ega yirik korxonalar Andijon shahrida (118,6 %), Asaka (18,5m %), Jalaquq (2,2m %), Qo'rg'ontepa (176,6 %) va Shahrixon tumanlarida (137,6 %) kuzatildi.

Kichik biznes subyektlarida nisbatan yuqori o'zgarish sur'ati Paxtaobod tumanida (85,1 %) qayd etildi.

**HUDUDLAR KESIMIDA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASINING O‘TGAN YILNING SHU DAVRIGA NISBATAN O‘ZGARISH SUR’ATLARI,** % da

Ko‘rsatkichlarni hududlar bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, viloyat ulgurji savdo aylanmasida yuqori ulush Andijon shahar 54,0 %, Asaka 19,6 %, Qo‘rg‘ontepa 6,3 %, Shahrixon 4,6 % tumanlarida qayd etildi.




Ulgurji tovar aylanmasida 2019-yilning shu davriga nisbatan eng yuqori o‘zgarish sur’atlari Qo‘rg‘ontepa (143,5 %), Asaka (103,8 %) tumanlarida va Andijon shahari (103,5 %)da qayd etildi.

**Andijon viloyati statistika boshqarmasi Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo‘limi**

**Tel: (74) 228-30-57**